

EMITENTNING NOMI								
1.	To'liq:		Chet el kapitali ishtirokidagi "Hamkorbank" aksiyadorlik tijorat banki					
	Qisqartirilgan:		"Hamkorbank" ATB					
	Birja tikerining nomi:*		HMKB					
ALOQA MA'LUMOTLARI								
2.	Joylashgan eri:		Andijon viloyati, Andijon shahri, Bobur shoh ko'chasi, 85-uy					
	Pochta manzili:		170119, Andijon viloyati, Andijon shahri, Bobur shoh ko'chasi, 85-uy					
	Elektron pochta manzili:*		muloqot@hamkorbank.uz					
	Rasmiy veb-sayti:*		www.hamkorbank.uz					
MUHIM FAKT TO'G'RISIDA AXBOROT								
3.	Muhim faktning raqami:		06					
	Muhim faktning nomi:		Emitentning yuqori boshqaruv organi tomonidan qabul qilingan qarorlar, shu jumladan aksiyalar, korporativ obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni chiqarish bo'yicha xo'jalik yurituvchi subyektlar kuzatuv kengashining qarorlari.					
	Umumiy yig'ilish turi:		Kuzatuv kengashi yig'ilishi					
	Yig'ilish o'tkazish sanasi:		10.01.2024					
	Yig'ilish bayonnomasi tuzilgan sana:		10.01.2024					
	Yig'ilish o'tkazilgan joy:		Andijon viloyati, Andijon shahri, Bobur shoh ko'chasi, 85-uy					
	Yig'ilish kvorumi:		100%					
	№	Ovoz berishga qo'yilgan masalalar	Ovoz berish yakunlari					
			yoqlash		qarshi		betaraflar	
			%	soni	%	soni	%	soni
1.	Chet el kapitali ishtirokidagi "Hamkorbank" aksiyadorlik tijorat banki qo'shimcha aksiyalarni chiqarish to'g'risidagi qarorini qabul qilish.	100,0	9	0,0	0	0,0	0	
2.	Chet el kapitali ishtirokidagi "Hamkorbank" aksiyadorlik tijorat banki aksiyalar qo'shimcha chiqarilishi to'g'risidagi qarorini tasdiqlash.	100,0	9	0,0	0	0,0	0	
Umumiy yig'ilish tomonidan qabul qilingan qarorlarning to'liq bayoni:								
1.	<p>1. Bank aksiyadorlarining 18.12.2023-yil kungi navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi tomonidan Bank ustav kapitalini oshirish uchun bankning o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasi xisobidan 323 324 490 000 (Uch yuz yigirma uch milliard uch yuz yigirma to'rt million to'rt yuz to'qson ming) so'm ajratilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.</p> <p>2. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi qaroriga asosan bankning o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasi hisobidan jami 340 341 568 421,05 (uch yuz qirq milliard uch yuz qirq bir million besh yuz oltmish sakkiz ming to'rt yuz yigirma bir so'm 05 tiyin) so'm miqdorida mablag' ajratilsin, shundan:</p> <ul style="list-style-type: none"> - 323 324 490 000 (Uch yuz yigirma uch milliard uch yuz yigirma to'rt million to'rt yuz to'qson ming) so'm bank ustav kapitalini oshirishga; - 17 017 078 421,05 (O'n yetti milliard o'n yetti million yetmish sakkiz ming to'rt yuz yigirma bir so'm 05 tiyin) so'm bank ustav kapitalini oshirish natijasida aksiyadorlarning O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi talablariga muvofiq yuzaga keladigan soliq majburiyatlarini qoplash uchun yo'naltirilsin. <p>3. Soliq kodeksi asosida soliq imtiyozlari qo'llanilishi munosabati bilan dividendlar (yoki dividendlarga ekvivalentidagi daromadlar) bo'yicha soliq to'lashdan ozod qilingan jismoniy va yuridik shaxs aksiyadorlar hisobvaraqlariga mazkur soliq imtiyozlari bank tomonidan to'lab berilsin.</p>							

	<p>4. Chet el kapitali ishtirokidagi “Hamkorbank” aksiyadorlik tijorat bankiga umumiy qiymati 323 324 490 000 (Uch yuz yigirma uch milliard uch yuz yigirma to‘rt million to‘rt yuz to‘qson ming) so‘mlik, bitta aksiya nominal qiymati 5 (besh) so‘m bo‘lgan jami 64 664 898 000 (Oltmish to‘rt milliard olti yuz oltmish to‘rt million sakkiz yuz to‘qson sakkiz ming) dona hujjatsiz, egasining nomi yozilgan aksiyalar muomalaga chiqarilsin, jumladan:</p> <ul style="list-style-type: none"> • 62 644 623 000 (Oltmish ikki milliard olti yuz qirq to‘rt million olti yuz yigirma uch ming) dona hujjatsiz, egasi nomi yozilgan oddiy aksiyalar; • 2 020 275 000 (Ikki milliard yigirma million ikki yuz yetmish besh ming) dona hujjatsiz, egasi nomi yozilgan imtiyozli aksiyalar. <p>5. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan boshlab 5-kun (beshinchi kun) holatiga shakllantirilgan aksiyadorlar reestrda ko‘rsatilgan bank aksiyadorlari o‘rtasida ular egalik qilgan aksiyalar soniga va turiga mutanosib ravishda 1:1 koeffitsiyentda, ya‘ni har 1 (bir) dona aksiya uchun qo‘shimcha 1 (bir) dona shu turdagi aksiyalar qo‘shib berish yo‘li bilan yopiq obuna usulida joylashtirilsin;</p> <p>6. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalarni joylashtirish qo‘shimcha aksiyalar chiqarilishi to‘g‘risidagi qaror davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan boshlab 30 kun davomida joylashtirilsin;</p> <p>7. Aksiyalarni joylashtirishni boshlash sanasi - mazkur aksiyalar chiqarilishi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan boshlab 5-kun (beshinchi kun) deb belgilansin;</p> <p>8. Aksiyalarni joylashtirishni tugash sanasi - ushbu chiqarilishdagi oxirgi aksiya joylashgan kun, biroq aksiyalar chiqarilishi to‘g‘risidagi qaror davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan boshlab 30 kun deb hisoblansin;</p> <p>9. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalarni joylashtirish qimmatli qog‘ozlarning tashkillashtirilmagan (uyushmagan) birjadan tashqari qimmatli qog‘ozlar bozorida aksiyalarni oldi-sotdi bitimlari tuzilmasdan amalga oshirilsin. Aksiyalar joylashtirilishi jarayonida anderrayter jalb qilinmasin;</p> <p>10. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar uchun to‘lov bankning o‘z kapitali, ya‘ni taqsimlanmagan foydasi hisobidan qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshirilsin. Aksiyalar bo‘yicha to‘lov “Taqsimlanmagan foyda” hisobidan “Ustav kapitali” hisobiga buxgalteriya yozuvlarini kiritish yo‘li bilan amalga oshirilsin;</p> <p>11. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar nominal qiymatida, ya‘ni 5 (besh) so‘mdan joylashtirilsin;</p> <p>12. Aksiyalar chiqarilishi amalga oshmagan deb topilgan taqdirda, to‘lov vositalari aksiyalar chiqarilishi amalga oshmagan deb topilgan kundan boshlab 10 kun ichida qaytarilsin.</p>
2.	<p>1. Chet el kapitali ishtirokidagi “Hamkorbank” aksiyadorlik tijorat banki aksiyalarni qo‘shimcha chiqarilishi to‘g‘risidagi qarori 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin;</p> <p>2. Bank Boshqaruv raisi B.T.Jo‘rayevga Chet el kapitali ishtirokidagi “Hamkorbank” aksiyadorlik tijorat banki aksiyalarni qo‘shimcha chiqarilishi to‘g‘risidagi qarorni imzolash vakolati berilsin;</p> <p>3. Bank Boshqaruv raisi B.T.Jo‘rayevga Chet el kapitali ishtirokidagi “Hamkorbank” aksiyadorlik tijorat banki aksiyalarni qo‘shimcha chiqarilishi to‘g‘risidagi qarorni o‘z vaqtida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun topshirish vazifasi yuklatilsin.</p>

Ijroiya organi rahbari
Jo‘rayev Baxtiyorjon To‘ymuratovich

Bosh buxgalter
Irgashev Nodirbek Rustamovich

Veb-saytda axborot joylashtirgan vakolatli shaxs
Sharobidinov Muhammadbobir Mo‘minjon o‘g‘li
